

Fors tilida yarimaffiksatsiya usuli orqali yasalgan iqtisodiy terminlar

Hozirgi kunda zamonaviy fors tili terminologiyasida, xususan, iqtisodiy terminlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega bo'lib, so'z bilan termin orasidagi farqni aniqlash muammosi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Fors tili terminalogiyasi bo'yicha bu muammo o'z-o'zidan Erondagi til va adabiyot akademiyasining faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Bizga ma'lumki, tildagi lug'at fondi o'zlashmalar hisobiga hamda tildagi mavjud so'z yasash usullari orqali boyiydi. Bizning ushbu tadqiqotdagi asosiy maqsadimiz, hozirgi fors tilidagi iqtisodiy terminlarni yasashda tildagi mavjud so'z yasash usullaridan yarimaffiksatsiya usuli orqali iqtisodiy termin yasashning o'rnini va ahamiyatini aniqlashdan iborat. Bu albatta fors tilidagi boshqa so'z yasash usullari ichida yarimaffiksatsiya usulining iqtisodiy termin yasashdagi ahamiyatini ham o'z ichiga qamrab oladi.

So'z-morfemalar (yarimaffikslar) yordamida so'z yasash o'z mohiyatiga ko'ra fors tilidagi ikki asosiy so'z yasash usuli: affiksatsiya va murakkab so'z yasash usullariga xos belgilarni o'zida jamlagan oraliq usul hisoblanadi. Yarimaffiksatsiya modellarida affiksalar va murakkab so'zlar oralig'ida joylashuvchi yasama so'zlarning o'ziga xos tarkibiy turlari yasaladi. Suffiksalar turdagi so'z-morfemalar orasida ismiy yarimaffikslarning uncha ko'p bo'lmagan miqdori va yuzlab fe'liy asosga ega birliklar mavjud. Fe'liy so'z-morfemalar miqdorining juda kattaligi tufayli fors tilida yarimaffiksatsiya vositalari xuddi affiksalar vositalar singari so'z yasashida salmog'li o'ringa ega. Shuning uchun o'z funksional mohiyati va so'z yasash sistemasida egallangan o'rnini bo'yicha yarimaffiksatsiyani bimalol affiksatsiya va murakkab so'z yasash bilan bir qatorga qo'yish mumkin¹.

¹ Vohidov A.A. Fors tilida so'z yasalishi. -T., 2010. -B.47.

L.S.Peysikov², Y.A.Rubinchik³, S.A.Aliyev⁴ kabi rus eronshunoslari fors tilidagi yarimaffikslarni, ya'ni ham ismiy, ham fe'liy turdagi yarimaffikslarni mustaqil so'z yasash usuli sifatida ko'radilar. Barcha Eron tilshunoslari, shu jumladan, P.N.Xonlariy⁵ ham fe'liy yarimaffikslarni qo'shma(murakkab) so'z komponenti sifatida o'rganadilar.

Hozirgi fors tilida yarimaffiksning ikki turi mavjud:

1. Fe'liy so'z-morfemalar (yarimaffiks)
2. Ismiy so'z-morfemalar (yarimaffiks)

L.S.Peysikov⁶ o'z tadqiqotida keng qo'llaniladigan fe'liy yarimaffikslarni tavsiflaydi va ularni struktur jihatdan 4 turga ajratadi:

- a) "sof" HZN: *-zā, -bar, -gir, -duz, -pazir, -angiz, -barandāz, -xafekon, -bandzan, -pākkon* va b.
- b) *-i (yā-ye masdari)* orttirilgan HZN: *-bandi, -keši, -yābi, -zani, -dāri, -parākani, -puši* va b.
- c) Inkori yuklamasi (prefiksi) orttirilgan HZN: *-nāpazir, -nāgir*, va b.
- d) be old qo'shimchasi (buyruq maylining birlik shakli) orttirilgan HZN: *-benavis, -bezan, -bexor, -begir* va b.

Yuqoridagi olimlar kabi O.M. Sotova⁷ ham o'z ishida termin yasovchi bir qator sermahsul fe'liy yarimaffikslarni ko'rsatadi.

Ismiy yarimaffiks deb, sintaktik jihatdan mustaqil ma'noga ega bo'lmagan, lekin yangi fors tili rivojining dastlabki davrida mustaqil ma'noga ega bo'lgan ismiy so'z turkumiga taalluqli so'zlarga aytiladi. Ismiy yarimaffikslar fe'liy yarimaffikslardan farqli ravishda prefiks (prepozitiv - old qo'shimcha) va suffiks

² Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. -М.: Изд-во Московского университета, 1973.

³ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного литературного персидского языка. -М., 2001.

⁴ Алиев С.А. Полуаффиксация в системе словообразования современного персидского языка: АКД. -М., 1985.

⁵ Xānlari P.N. Dastur-e zabān-e fārsi. Čāp-e (nohom) davāzdahom. -Tehrān, 1370. - S.173-174.

⁶ Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. -М.: Изд-во Московского университета, 1973. - С.97.

⁷ Сотова О.М. Основные структурно-семантические особенности терминообразования в современном персидском языке: Дисс...к.ф.н. -М., 2008. - С.31-32.

(postpozitiv - ort qo‘shimcha) shakliga ega. Shuning uchun ham ismiy yarimaffikslarning so‘z yasashdagi imkoniyatlari ko‘pdir⁸.

Otdan yasalgan yarimaffikslar nisbatan kam bo‘lib: *-kade* “xona”; *-maneš* “fikir”; *-gun* “rang, shakl”; *-gāh* “joy, payt”; *-xāne* “o‘rin, joy” shular jumlasidandir.

Fors tilida sifatga taalluqli – *kam-*, *xoš-*, *por-* va sh.o‘. yarim prefikslar ham ko‘plab yangi so‘z yasaydi.

Undan tashqari “ulkan”, “yirik” ma’nosi bilan *xar-*, *gāv-*, *šāh-* yarimaffikslari ham mavjud bo‘lib, hozirgi zamon fors tilida kammahsul yarimaffikslarga aylangan⁹.

Yarimaffikslar sodda va murakkab affiks shakllarida bo‘lib, ko‘pincha fe’lning hozirgi zamon negizi hamda ot so‘z turkumiga xos so‘zlardan iborat bo‘ladi.

Yarimaffikslarning affikslardan farqi shundaki, ular o‘z ma’nosini aniqroq saqlab qolgan bo‘ladi. Yarimaffikslar sifatida HZN va ot yarim suffikslaridan tashqari prefiksli fe’llar, qo‘shma fe’llar va frazeologik birikmalar ham so‘z yasashda ishtirok etadi.

Yarimaffikslar “ot + hozirgi zamon fe’l negizi” o‘ta qadimiy usullardan bo‘lib, hozirgi zamon fors tilida boshqa so‘z yasash usullari qatorida eng muhim so‘z yasovchi modellardan hisoblanadi.

Bu modelda so‘z yasash imkoniyatlari cheksiz bo‘lib, shoir va yozuvchilar ijodida, og‘zaki tilda va rasmiy “Farhangiston” tomonidan kiritilayotgan yangi so‘z va terminlarda keng miqyosda qo‘llaniladi.

Yarimaffikslar umumiy fe’liy ma’nosini saqlab qolgan bo‘lsa ham ammo tobora mavhumlashib kengroq ma’nolarda qo‘llanilmoqda¹⁰.

Shunga ko‘ra, mazkur izlanishimizda biz fors tilidagi zamonaviy manbalar asosida to‘plangan, yarimaffiksatsiya usuli orqali yasalgan 116 ta iqtisodiy terminlarni ko‘rib chiqamiz.

⁸ Алиев С.А. Полуаффиксация в системе словообразования современного персидского языка: АКД. -М., 1985. -С.17-18.

⁹ Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. -Т., 2009. -Б.18.

¹⁰ Ko‘rsatilgan kitob. -Б.17.

Manbalardan to‘plangan iqtisodiy terminlarimizni biz ham ikkiga ajratgan holda, ya’ni fe’liy va ismiy yarimaffikslar shaklida tahlil qilamiz. Fe’liy yarimaffikslar orqali yasalgan iqtisodiy terminlar tahlilimizda 92 tani tashkil etdi. Ismiy yarimaffikslar orqali yasalgan terminlarimiz esa 24 tani tashkil etdi. To‘plangan terminlar ichidan fe’liy yarimaffikslar orqali yasalgan terminlarni yuqorida qayd etilgan L. S. Peysikov tavsiflagan usulda struktur qismlarga bo‘lamiz:

a) “sof” HZN: bu qismdagi terminlarimiz soni 48 tani tashkil etdi. Masalan: *amānatgozār* “depozitor” (گذاشتن → گذار) “qo‘ymoq” fe’lining HZN); ربح *rebhāvar* “foydali(foizli)” (آوردن → آور) “olib kelmoq” fe’lining HZN); بانک دار *bānkdār* “banker” (داشتن → دار) “ega bo‘lmoq” fe’lining HZN); برات کش *barātkeš* “veksel beruvchi shaxs” (کشیدن → کش) “tortmoq” fe’lining HZN); *tanxāh* “pul, kapital, sarmoya, veksel” (خواستن → خواه) “xohlamoq, istamoq” fe’lining HZN); *gerānforuś* “chayqovchi” (فروختن → فروش) “sotmoq” fe’lining HZN); منفعت بر *rebāxār* “sudxo‘r” (خواردن → خوار) “yemoq” fe’lining HZN); *manfaatbar* “foyda ko‘ruvchi” (بردن → بر) “olib bormoq” fe’lining HZN) va sh.o‘.

کسی که برات را ایجاد می‌نماید، برات‌کش یا همان صادرکننده برات است

Kasi ke barāt rā ijād minamāyad, barātkeš yā hamān sāderkonande-ye barāt ast

“Veksel chiqargan shaxs – veksel beruvchi shaxs yoki o‘sha vekselni sotuvchi shaxsdir”.

[جهان اقتصاد (yakshanba, 27-dekabr, 2015-yil, 2-bet)]

از بانک های گرانفروش شکایت کنید

Az bank-hā-ye gerānforuś šekāyat konid

“Chayqovchi banklar ustidan shikoyat qiling”.

[<http://www.hamshahrionline.ir/details/331537/Economy/nationaleconomy>]

b) -i (*yā-ye masdari*) orttirilgan HZN: bu qismdagi terminlar soni esa 44 tani tashkil etdi. Masalan: *ejārebandi* “ijara hujjati, ijaraga berish”, (بندی → بندى) *narxbandi* “narxlash”, (بندی → بستن) fe’lining HZN + ی); *bārkeši* “tovar tashish”, (کشیدن → کشى) fe’lining HZN + ی);

دفترداری (ی + HZN fe'lining داشتن → داری), "bank boshqaruvi" بانک داری *bānkdāri*
شهرسازی (ی + HZN fe'lining داشتن → داری), "buxgalteriya" داftardāri
va sh. o'. "urbanizatsiyalash(indeksi)", (ی + HZN fe'lining ساختن → سازی), "urbanizatsiyalash(indeksi)".

رئیس اداره راه و شهرسازی شهرستان نظرآباد 27 مورد از ساخت و ساز در حریم راه ها خبر داد

Rais-e edāre-ye rāh-o šahrsāzi-ye šahrestān-e Nazarābād 27 moured az sāxtosāz dar harim-e rah-hā xabar dād

"Nazarobod shahrining yo'l va shaharlashtirish idorasi raisi yo'llar chegarasidagi 27 ta qurilish haqida xabar berdi".

[www.pishkhaan.net]

گفتی است ارائه این مطالب موجب آگاهی و هوشیاری صندوق های سرمایه گذاری شد

Goftanist erāye-ye in matāleb moujeb-e āgahi va hušyāri-ye sanduq hā-ye sarmāyegozāri šod

"Aytsa bo'ladiki, bu masalaning taqdim etilishi investitsiya kiritish kassalarining ogohlik va hushyorligiga sabab bo'ldi".

[اطلاعات (yakshanba, 21-fevral, 2016-yil)]

Tahlil davomida fe'liy yarimaffikslarning qolgan ikki struktur turi uchramadi.

Ismiy yarimaffikslar orqali yasalgan terminlar tahlilimizda 24 tani tashkil etganini yuqorida qayd etib o'tgan edik. Misollarimizda *-nāme(8)*, *-xāne(6)*, *por-(2)*, *pas-(2)*, *piš-(2)*, *-gāh(2)*, *kam-(1)*, *-bāši(1)* kabi ismiy yarimaffikslar ishtirok etgan. Bularning yarimaffiksga kirishi yoki kirmasligi tog'risida Eronshunos olimlarning turlicha fikr va mulohazalari mavjud. Tadqiqotimizda mavzuni yoritish maqsadida ushbu fikrlardan foydalanilgan. Tahlilda ishtirok etgan ismiy yarimaffikslar sermahsulidan kammahsuliga qarab ketma-ketlikda berilgan.

-nāme yarimaffiksi orqali yasalgan iqtisodiy terminlar 8 tani tashkil etdi.

O.M. Sotova نامه *-nāme* ni yarimaffikslar qatoriga kiritib, uning "hujjat" ma'nosiga ega ekanligini ham ta'kidlaydi¹¹.

¹¹ Сотова О.М. Основные структурно-семантические особенности терминообразования в современном персидском языке: Дисс...к.ф.н. -М., 2008. -С.40.

Manbalarda -nāme orqali yasalgan quyidagi soʻzlarni uchratdik: امتیازنامه emtiyāznāme “patent” (امتیاز – “imtiyoz”); بیمه نامه bimenāme “sugʻurta hujjati” (بیمه – “sugʻurta”); ترانز balans, balans qaydnomasi terāznāme (ترانز – “balans”); رهن rahnnāme “garov shartnomasi(hujjati)” (رهن – “garov, zaklad”); سفارش نامه sefārešnāme “yozma buyurtma” (سفارش – “buyurtma”); عهدنامه ahdnāme “shartnoma” (عهد – “shart, majburiyat”); گشادنامه gošādnāme “patent” (گشاد – “1.yirik, katta; 2. ogʻz. muvaffaqiyat”); پیوندنامه peyvandnāme “yozma kelishuv, shartnoma” (پیوند → پیوستن feʼlining HZN – “ulamoq, qoʻshmoq, bogʻlamoq”).

ترازنامه یکی از انواع صورت های مالی می باشد که...

Terāznāme yeki az anvāʼ-e surat-hā-ye māli mibāšad ke...

“Balans (balans qaydnomasi) – moliyaviy hujjat turlaridan biri boʻlib, ...”.

[<http://hesabdar-ac.ir/tag>]

-xāne ismiy yarimaffiksi orqali yasalgan terminlar 6 tani tashkil etdi.

Rus Eronshunosi O.M. Sotova oʻz tadqiqot ishida -xāne ni yarimaffikslar qatoriga kiritib, quyidagi misollarni keltiradi¹²: کارخانه kār xāne “zavod, fabrika” (کار – “ish”); رصدخانه rasadxāne “rasadxona” (رصد rasad “osmon jismlarini kuzatish”) va b.

Manbalarda -xāne ismiy yarimaffiksi orqali yasalgan quyidagi soʻzlarni uchratdik: صرافخانه sarrāfxāne “pul ayirboshlash joyi” (صراف – “sarrof”); کارخانه kār xāne “zavod, fabrika” (کار – “ish”); ضرابخانه zarābxāne “zarbxona” (ضراب – “zarb qilish”); گمرکخانه gomroqxāne “bojxona joylashgan bino” (گمرک – “bojxona”); ماشینخانه māšinxāne “moshinxona” (ماشین – “avtomobil”); تجارتخانه tejāratxāne “savdo firmasi” (تجارت – “tijorat”).

گمرکخانه جایی که در آن خراج گمرک از مال التجاره باج می گیرند

Gomroqxāne jāyi ke dar ān xarrāj-e gomrok az māl-ol tejāre bāj migirand

“Bojxona bu tijorat mollaridan boj puli olinadigan joy hisoblanadi”.

[www.vajehyab.com/dehkhoda]

¹² Сотова О.М. Основные структурно-семантические особенности терминообразования в современном персидском языке: Дисс...к.ф.н. -М., 2008. -С.40.

-*gāh*, *por-*, *pas-*, *piš-* kabi ismiy yarimaffikslar tahlilimizda kammahsul deb topildi.

-*gāh* yarimaffiksini Y.A.Rubinchik va L.S.Peysikov¹³ sermahsul yarimaffikslar qatoriga kiritishgan va o‘z asarlarida “ot+*gāh*”, “sifat+*gāh*”, “infinitiv+*gāh*”, “HZN+*gāh*” modellardagi bir qator misollarni keltirganlar.

O.M. Sotova پر *por-* ni “biror belgining ko‘p miqdorga ega” sermahsul yarimaffiks sifatida ko‘rsatib, bir qator misollarni keltiradi¹⁴. Eron olimlari esa ushbu yarimaffiks bilan yasalgan so‘zlarni murakkab so‘zlarga kiritadilar.

Yuqoridagi ismiy yarimaffikslar har biridan 2 tadan misol to‘plandi. Masalan: کارگاه *kārgāh* “ishxona, sex” (کار – “ish”); پرمفعت *pormanfaat* “serfoйда, foydali” (منفعت – “manfaat”); پس افیت *pasoft* “to‘lanmay qolgan qarz” (افتادن → افت “*yiqlilmoq, tushmoq*” fe‘lining HZN); پس انداز *pasandāz* “tejash, jamg‘arma” (اندازن → انداز “*solmoq*” fe‘lining HZN); پیش فروشی *pišforuši* “oldindan savdo qilish” (فروشی → فروختن “*sotmoq*” fe‘lining HZN+ی); پیش بها *pišbahā* “avans” (بها – “narx”).

پولی که پیش از دریافت کالا به فروشنده دهند تا هنگام تحویل کالا بقیه پول را بپردازند. پیش بها

Pišbahā puli ke piš az daryāft-e kālā be forušan-de dehand tā hengām-e tahvil-e kālā bayiye-ye pul rā bepardāzad.

“Avans – tovarni olishdan oldin sotuvchiga xaridor tomonidan tovarni berguncha pulning bir qismi to‘lanadigan summa”

[<https://www.vajehyab.com/moein>]

کارگاه های در حال ثبت نام

“Ro‘yxatga olinayotgan ishxona(zavod, fabrika)lar”.

[آفتاب یزد (chorshanba, 15- o‘rdibehesht (4-may), 2016-yil, 1-bet)]

قصد داریم در این مطلب لیستی از پرفایده ترین آنها را به شما معرفی کنیم

¹³ Bu haqda qarang: Рубинчик Ю.А. Грамматика современного литературного персидского языка. -М., 2001. - С.153-155; Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. -М.: Из-во Московского университета, 1973. -С.111.

¹⁴ Сотова О.М. Основные структурно-семантические особенности терминообразования в современном персидском языке: Дисс...к.ф.н.-М., 2008. -С. 42.

yasd dārim dar in matlab list-i az porfāydetarin-e ānhā rā be šomā moarrafi konim

“Bu ishda sizga ular ichida eng foydalilari ro‘yxatini tanishtirish niyatimiz bor”.

[<http://www.tasnimnews.com/fa/news>]

-*bāši*, *kam*- yarimaffikslari orqali yasalgan iqtisodiy terminlar tahlilimizda bittadan uchradi: تاجر باشی *kambahā* “arzon” (*bahā* “narx”, *kam* “oz”); *tājerbāši* “savdogarlar boshlig‘i”, (باشی *blokli* yarimaffiksi turkiy tillardan o‘zlashgan hisoblanadi);

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fors tilida yarimaffiksatsiya usuli orqali termin yasash ham mahsuldor usullardan biri hisoblanadi. Tadqiqotimizda fors tili iqtisodiy terminlarining yasashida yarimaffikslar, xususan fe‘liy yarimaffikslar katta o‘rinni egalladi. Til egalarining mazkur so‘z yasash usulidan keng foydalanishi aniqlandi.

Tadqiqotimiz davomida fe‘liy yarimaffikslar ismiy yarimaffikslardan mahsuldor deb topildi. Izlanishimizda uchragan fe‘liy yarimaffikslardan “sof” HZN orqali yasalgan yarimaffikslar sermahsul hisoblandi.

Ismiy yarimaffikslardan tadqiqotimizda eng mahsuldorlari -*nāme* va -*xāne* yarimaffikslari bo‘ldi. Keyingi o‘rinlarni qolgan -*gāh*, *por-*, *piš-*, *pas-*, -*bāši* va *kam*- yarimaffikslari egalladi. Fikrimiz isboti sifatida quyidagi foizlarda ko‘rsatilgan xulosalarni ko‘rishingiz mumkin:

To‘plangan 116 ta yarimaffiks orqali yasalgan terminlardan, fe‘liy yarimaffikslar orqali yasalgan terminlar 92(79%) tani, ismiy yarimaffikslar orqali yasalgan terminlar esa 24(21%) tani tashkil qildi.

“sof” HZN yarimaffiksi orqali yasalgan terminlar 48(41%) tani va -i (*yā-ye masdari*) orttirilgan HZN yarimaffiksi orqali yasalgan terminlar esa 44(38%) tani tashkil etdi.

Ismiy yarimaffikslardan tahlilimizda -*nāme* orqali yasalgan terminlar 8(6,8%) tani, -*xāne* orqali 6(5,2%) tani, -*gāh* orqali 2(1,8%) tani, *por-* orqali 2(1,8%) tani,

pas- orqali 2(1,8%) tani, *piš-* orqali 2(1,8%) tani, *-bāši* orqali 1(0,9%) tani hamda *kam-* orqali yasalgan iqtisodiy terminlar 1(0,9%) tani tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. -T., 2009.
2. Vohidov A.A. Fors tilida so‘z yasalishi. -T., 2010.
3. Xānlari P.N. Dastur-e zabān-e fārsi. Čāp-e (nohom) davāzdahom. -Tehrān, 1370.
4. Алиев С.А. Полуаффиксация в системе словообразования современного персидского языка: АКД. -М., 1985.
5. Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. -М.: Изд-во Московского университета, 1973.
6. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного литературного персидского языка. -М., 2001.
7. Сотова О.М. Основные структурно-семантические особенности терминообразования в современном персидском языке: Дисс...к.ф.н. -М., 2008.